



ZAMANOVIY DARS-ZAMONAVIY O'QITUVCHI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Marufova
Madinaxon
Doniyorjon qizi**

*Qo`qon universiteti
Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 1-21-guruh 4-kurs
talabasi*

Abstract

Ushbu maqolada zamonaviy dars va zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar haqida tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, o'quvchilarning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy o'qituvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llab, o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos yondashuvni amalga oshirishi kerak. U o'zining pedagogik malakasini oshirib, yangi o'quv metodlarini o'rganishi lozim. Ta'lim tizimining sifatini oshirish uchun o'qituvchining rivojlanishi zarurligi aytiladi. Zamonaviy dars qanday bo'lishi va qanday didaktik talablar qo'yilishi hamda zamonaviy dars mashg'ulotlari haqida aytib o'tiladi.

Keywords : zamonaviy dars, zamonaviy o'qituvchi, ta'lim, faollik, metod.

Zamonaviy dars, zamonaviy o'qituvchi va unga qo'yiladigan talablar haqida gapiradiga bo'lsak, ta'lim tizimining rivojlanishi, pedagogika metodologiyasi va o'qituvchiga qo'yiladigan yangi talablar haqida keng tasavvurga ega bo'lishimiz kerak. Bu mavzu hozirgi kunda nafaqat pedagogikada, balki jamiyatda ham muhim o'rin tutadi, sababi ta'limning sifatli bo'lishi jamiyatning taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir. “O'qituvchi – deydi Abu Nasr Al- Forobiy, - aql farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur.” U o'z fikrini davom ettirib: “O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aqlfarosatga, ravon nutqqa ega bo'lishi, o'qituvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi,” – deb ta'kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, “O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, ahloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i

lozim. Mahoratli ustoz o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, aql qatlamlariga kira olmog'i lozim." Nosiriddin Tusiy o'zining "O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida shunday deydi: ".O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... o'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi: O'qituvchi – sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. Ustoz o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbai hisoblanadi. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'ladilar. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas¹. Zamonaviy dars - bu aynan o'quvchilarning bilish darajasi rivojlanib, ularni atrofdagi haqiqatni faol ravishda idrok etishga, sabab-ta'sir munosabatlarini tushunishga va topishga, mantiq, fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi. Zamonaviy darsning maqsadi aniq va o'lchovli bo'lishi kerak. Maqsadni dars natijasi bilan aniqlash mumkin. Darsning yangi ta'lim maqsadlariga o'quvchilar o'zlari tomonidan tuziladigan va shaxsan o'zi uchun muhimligini anglaydigan maqsadlar kiradi. Zamonaviy dars mashg'ulotlar, suhbatlar, video-munozaralar, ishbilarmonlik va rol o'ynash o'yinlari, ochiq savollar, aqliy hujum va boshqalar kabi mashg'ulot usullari va o'qitish usullaridan foydalanish bilan ajralib turadi.²

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki bunyodkori va tashkilotchisidir». Bunday yangicha yondashishlar pedagogika fanining obyektini va predmetini kengaytirdi. Endilikda pedagogika fanining obyektini faqat ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy, metodologik amaliy ta'minlovchisigina emas, balki u komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta'minlaydigan keng sohalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida»gi milliy modelda shaxsga kadrlar tayyorlash tizimining bosh obyektini va subyekti sifatida qaraladi. Bundan tashqari, pedagogika fani oldiga yangicha fikrlaydigan, yangicha tafakkur, milliy mafkuraga ega komil insonni shakllantirish vazifalari qo'yildi.³ Har qanday milliy til kabi o'zbek tili ham o'zbek millatini birlashtiruvchi, uning milliy ruhini ifodalovchi vositadir. Chunki Respublikamizning birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. Ona tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar". Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Xalqimiz

¹ C:/Users/User.AD.052/Downloads/9251-Текст%20статьи-22258-1-10-20231122%20(1).pdf

Journal of Pedagogy and psychology in modern education

² file:///C:/Users/User.AD.052/Downloads/Avazova+F+55-60+CUSR.pdf

³ Pedagogika va psixologiya o'quv qo'llanma.A.A.Usmanova (13-bet)

dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmaz ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fantexnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz", degan edi.

Zamonaviy dars mashg'ulotlar, suhbatlar, video-munozaralar, ishbilarmonlik va rol o'ynash o'yinlari, ochiq savollar, aqliy hujum va boshqalar kabi mashg'ulot usullari va o'qitish usullaridan foydalanish bilan ajralib turadi. Darsga qo'yiladigan zamonaviy tarbiyaviy talablar: O'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, eng yaxshi axloqiy sifatlarni, olgan bilimni hayot bilan bog'lay olishni, Vatanni uning tarixi, madaniyati, urf – odatlarini, eng asosiysi, insonni hurmat qilishni, ilmiy dunyoqarashni, iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatni tarkib toptirishni tarbiyalash kerak. Darsga qo'yiladigan psixologik talablar: O'quvchilarning individualpsixologik xususiyatlarini bilgan holda ularda xotira, ongli idrok etishni, mustahkam irodani, tasavvur qila olishni, o'quvchilarda davlat ta'lim standartlari qo'ygan talablarni ular yoshiga mosligini hisobga olishni ta'minlashdan iboratdir. Darsga qo'yiladigan gigienik talablar: Sinfdagi havo harorati, yorug'lik miqdori, uning tozaligi, estetik did bilan jihozlanishi o'quvchilarga beriladigan topshiriqlarning ular yoshiga mosligini hisobga olish kabilarga rioya qilish shart. Zamonaviy darsga qo'yilgan didaktik talablar: Darsning ta'limiy-tarbiyaviy maqsadini aniqlash, dars mavzusini qiziqarli, ilmiy faktlar bilan belgilash, dars mavzusining mohiyatini o'quvchilarning o'zi mustaqil fikrlab o'zlashtirishga erishish, darsda barcha o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, o'quv materiallarini o'quvchilar tomonidan sodda tarzda qabul qilishga, hayot bilan chambarchas bog'lashga erishish, mavzu mazmuniga mos ta'lim metodlarini tanlash va ulardan ko'proq o'quvchilarning foydalanishiga erishish, mavzu mazmuniga mos ta'lim metodlarini tanlash. Bu metodlar asosan qisman izlanish hamda izlanish darajasiga bo'lishi zarur. O'quvchilarning bilim manbalari bilan mustaqil ishlashga o'rgatib borish. O'quvchilarning dars mazmuniga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasi, o'z tarixi, tili, urf – odatlari hamda boy madaniyatimiz bilan faxrlanishga o'rgatish, dars mavzusini boshqa o'quv fanlari bilan asoslanib o'rganish, dars mavzusini o'lkashunoslik tamoyiliga bog'liqligini ta'minlash, o'quvchilarda dars mavzusiga mos ravishda iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatni tarkib toptirish, darsda davlat ta'lim standartlariga o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarni to'liq bajarishga erishish, o'quvchilar o'zlashtirgan bilim sifatini xolisona baholanishiga erishish.⁴ Zamonaviy dars, o'quvchilarni nafaqat an'anaviy bilimlar bilan ta'minlashni, balki ularga hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni berishni maqsad qiladi. Zamonaviy darsning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

✓ **Faollik:** O'quvchilar faqat tinglovchi emas, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi kerak. Darsda o'quvchilarni o'z fikrlarini bildirishga, muhokama qilishga va mustaqil ravishda yechim topishga undash zarur.

⁴ file:///C:/Users/User.AD.049/Downloads/Avazova%20F%2055-60%20CUSR.pdf

✓ **Differensial yondashuv:** Har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlari turlicha. Shuning uchun, darsda o'quvchilarning bilim darajasiga mos yondashuv va resurslardan foydalanish muhim.

✓ **Interfaol metodlar:** O'quvchilarni darsga jalb qilish uchun interfaol usullar, masalan, guruhli ishlar, loyihalar, role-play (rol o'ynash) metodlari qo'llaniladi.

✓ **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:** Zamonaviy darslarda kompyuterlar, internet, interaktiv ta'lim dasturlari va boshqa texnologiyalarni samarali qo'llash talab etiladi.

✓ **Loyiha asosidagi ta'lim:** O'quvchilarni haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilishga yo'naltiruvchi loyiha asosidagi ta'lim metodlari qo'llaniladi. Bu metod o'quvchilarni yanada ijodiy va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Jamiyat uchun o'qituvchining o'rni va roli beqiyos. Ularning saviyasi jamiyatni yo tubanga, yoki yuksakka olib boradi. Tushunarli bo'lishi kerakki, o'qituvchi – ulkan mas'uliyatli, hur fikrli va o'sib boruvchi bilim egasi. Zamonaviylik uning majburiy sifati, bilimiga qanady talab bo'lsa, unga ham shunchalik qat'iy talab bo'ladi. Ya'ni bilimni bu zamonga muvofiqlashtirib borilmasa, nafi va dollzarblik kamayib boradi. Demak, keng dunyoqarash, hur fikrlash va zamonaviylik – o'qituvchining majburiy kasb talabi. O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida haqli ravishda ta'kidlaganidek, “agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharafli o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz”. Darhaqiqat, o'qituvchi, nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan mo'tabar zotdir.⁵

Xulosa qilib aytsak zamonaviy o'qituvchining roli va unga qo'yiladigan talablar hozirgi ta'lim tizimida sezilarli ravishda o'zgargan. Bugungi kunda o'qituvchidan faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning fikrlashini, muloqot qobiliyatini va ijodkorligini rivojlantiruvchi shaxs bo'lishi talab qilinadi. Zamonaviy o'qituvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashda, shuningdek, individual yondashuvni tatbiq etishda yuqori malakaga ega bo'lishi zarur. Ularning roli nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda o'z-o'zini o'rganish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhimdir. O'qituvchi, shuningdek, o'quvchilarga motivatsiya berish, ijtimoiy muhitda faol bo'lish va yangi o'quv metodlarini o'rganishga intilish orqali ta'lim jarayonini samarali boshqarishi lozim. Shu bilan birga, o'qituvchining doimiy ravishda o'zini takomillashtirishga intilishi va yangi pedagogik g'oyalarni qabul qilishi ta'limning sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. C:/Users/User.AD.052/Downloads/9251-Текст%20статьи-22258-1-10-20231122%20(1).pdf
2. <file:///C:/Users/User.AD.049/Downloads/Avazova%20F%2055-60%20CUSR.pdf>
3. <file:///C:/Users/User.AD.049/Downloads/zamonaviy-o-qituvchi-va-unga-qo-yiladigan-talablar.pdf>
4. <file:///C:/Users/User.AD.052/Downloads/Avazova+F+55-60+CUSR.pdf>

⁵ file:///C:/Users/User.AD.049/Downloads/zamonaviy-o-qituvchi-va-unga-qo-yiladigan-talablar.pdf

5. Journal of Pedagogy and psychology in modern education
6. Pedagogika va psixologiya o`quv qo`llanma.A.A.Usmanova (13-bet)
7. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1048-1052.
8. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
9. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 408-411.
10. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 121-123.
11. Musharrafxon, I., & Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O 'RNI. *Kokand University Research Base*, 216-219.